

ILMIY IZLANISH GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR YECHIMI

**Xoldaraliyeva Shahzoda Ulug`bek qizi**

*Farg`ona Davlat Universiteti Talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hozirgi kunda insonlarni oldida yuzaga kelgan dunyodagi global ekologik muammolari va ularning kelib chiqish sabablari, shuningdek, bu muammolarni yechimi haqida so`z yuritiladi.*

**Kalit So`zlar:** *Ozon qatlami, skaylob, Issiqxona samarasi, Gidrosfera, Ozonosfera, okean.*

Inson yashab turar ekan tabiat ne`matlaridan foydalanadi, undan bahramand bo`ladi. Lekin ana shu ne`matlardan oqilona foydalanmaslik oqibatida turli ekologik muammolar yuzaga keladi. Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me`yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo`lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo — global iqlim o`zgarishi yuzaga keldi.

Aholi sonining o`sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar paydo bo`ldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o`rmonlar ko`payish o`rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o`zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanyapti. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o`rmon yong'inlari, chang bo`ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur yetkazyapti. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e`tiborini yana bir bor davrimizning o`tkir muammolaridan biri — Orolbo`yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday degan edi: "Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta`sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o`zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda". Muayyan geografik hududning o`ziga xos iqlimi, ijtimoiy-ekologik, etnografik xususiyatlari tabiat bilan inson o`rtasidagi o`zaro aloqa va munosabatlar karakterini belgilab beradi. Ekologik xavf bugungi kunda tobora keng tus olib, yer yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqida chuqurroq o`ylashga majbur etmoqda. Jahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londonning zoologik jamiyati mutaxassisleri hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko`ra, 1970-yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foiz (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76 foiz, yer usti va suvda kun kechiradiganlar soni 39 foiz) qisqargan. Har yili 11 million gektar tropik o`rmon kesilmoqda. Yo`qotishlar

o'rmonlarni tiklash ishlariga nisbatan 10 barobar ko'pdir. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilishi dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda. Shuningdek, ozon qatlaminin yemirilishi, dunyo okeanining ifloslanishi, tuproq unumdor qatlaminin yo'qolib borishi, tropik o'rmonlarning kesilishi, cho'llanish, chuchuk suv manbalari va bioxilma-xillikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko'payishi, kimyoviy va toksik moddalarni zararsizlantirish kabi ekologik inqirozlar allaqachon bir davlat chegarasidan chiqib, tom ma'noda global ekologik muammolarga aylandi.

Hozirgi kunda sanoat korxonalariga faqat sifatli mahsulot ishlab chiqarish emas, balki atrof-muhitga zarar yetkazmaslik ham asosiy talablardan biri sifatida qo'yilmoqda. Shu bois, Toshkent kimyo-texnologiya institutida sanoat korxonalarida hosil bo'layotgan chiqindilarni tozalash bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilyapti. Jumladan, "ALUTEX" O'zbekiston—Britaniya qo'shma korxonasida ishlab chiqarish suvlarini tuzsizlantirish, mahsulotga rang berish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni tozalash bo'yicha xo'jalik shartnomasi asosida ilmiy ish olib borilmoqda. Bundan tashqari, shahar kanalizatsiya suvlarini tozalash stansiyalarida hosil bo'ladigan cho'kmalarni bartaraf etish bo'yicha hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan. Institutda germaniyalik olimlar bilan birgalikda maishiy va qattiq chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha loyiha tayyorlanib, Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim qilinmoqda. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining Qozon federal universiteti bilan hamkorlik memorandumini imzolandi. Bu universitetda atrof-muhit muhofazasi sohasida tajribali olimlar bo'lganligi bois, kelajakda o'zaro hamkorlikda xalqaro konferensiya, seminar-treninglar o'tkazish, sohaga oid adabiyot va qo'llanmalar yaratish bo'yicha hamkorlik ishlarini amalga oshirishga kelishib olindi. Toshkent kimyo-texnologiya instituti sanoat ekologiyasi kafedrasida chiqindisiz texnologik jarayonlarni takomillashtirish, sanoat oqova suvlarini tozalash, atmosfera havosini zaharli gazlardan tozalashga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar qilinmoqda. O'zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda ma'lum bo'lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.

Inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ana shunday ta'sirda yoki munosabatda bo'lishi natijasida XX asr o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi.

Inson sivilizatsiyasining rivojlanishi va uning tabiat bag'riga tobora chuqurroq kirib borishi oqibatida ahvol tubdan o'zgardi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirmasa ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'rmonlar qirgildi, kata-katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'tlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda

toshqinlar, o'rmon yog'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga ba'zi bir misollarni keltirib o'tamiz:

1. "Atmosferaning dimiqishi" hodisasi.
2. "Ozon qatlamining siyraklanishi" hodisasi.
3. "Chuchuk suv" muammosi .
4. "Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi" muammosi.
5. "Pestisetlardan foydalanish" muammosi.

Mintaqaviy ekologik muammolar. Yer yuzasining muayyan mintaqasi o'ziga xos tabiiy iqlim, ijtimoiy – ekologik, etnografik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari xarakterini belgilab beradi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqaga bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq-ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy ekotizmlarning holatiga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ekologik vaziyatni yaxshilash yo'llari O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

Aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, biosferaviy muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish; regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish xususiyatini tiklash; tabiatning dastlabki turlari va ularning genofondini landshaftlarning xilma-xiligini saqlash.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog'liq halokatli ekologik – iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har bir Respublikaning Orol dengiziga quya oladigan suvi, ya'ni Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan. Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar-gigiyenik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar. Orol dengizining

qurishi iqlim o'zgarishiga ham sababchi bo'ldi. Qurg'oqchilik tufayli iqlimning keskin kontinentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o'rtasidagi haroratning o'zgarishi, shamol tezligining ortishi, suvning to'liqlanish hodisasini kuchaytirishiga olib keldi. Sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi. Qurigan maydonlar xavfli kasalliklarni tarqatuvchi kemiruvchi bilan to'lib bormoqda. Orol bo'yining sanitar-epidemiologik ahvoli nihoyatda og'irlashmoqda. Agar zudlik bilan tabiatda vujudga kelayotgan muammolar hal qilinmasa insoniyat va butun mavjudotning hayoti xavf ostida qoladi. Biz tabiatga qarammiz, biz tabiatsiz yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har bir qarich yerini ko'z qorachig'iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo g'amxo'rlik qilishimiz lozim. Hozirgi kunda chuchuk suv yetishmasligi muammosi antropogen omillar ta'sirida yanada keskinlashib ketdi. Ba'zi sanoat, maishiy kommunal xo'jalik va qishloq xo'jaligida foydalanilgan suvlar qayta ishlanmasdan daryolarga oqizilmoqda. Buning oqibatida daryo suvi ifloslanishi bilan birgalikda turli yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Reyn, Dunay, Sena, Tibr, Missisipi, Volga, Dnepr, Don, Dnestr, Nil, Ganga va boshqa daryolar juda ifloslanib ketgan daryolar hisoblanadi. Dunyo okeani ham ifloslanib bormoqda. Okean suvlari ayniqsa neft mahsulotlari bilan ifloslanmoqda. Dunyo okeanining 1/3 qismidan ortig'i neft pardasi bilan qoplangan. Neft pardasi bug'lanishni kamaytiradi, planktonlar rivojlanishi, okean bilan atmosfera o'zaro aloqalarini chegaralaydi. Neft bilan Atlantika okeani eng ko'p ifloslangan.

Yuqorida keltirilgan ekologik muammolarning hammasi antropogen ya'ni inson omili bilan bog'liq. Xo'sh bir nima qilishimiz kerak? Qanday choralar ko'rishimiz zarur? Albatta, inson tabiatni ifloslash bilan chegaralanib qolayotganligi yo'q. Uni bartaraf etish chora-tadbirlarini ham amalga oshirmoqda. Ko'pgina davlatlarda ekologik siyosat olib borilmoqda. Bizning davlatimizda ham atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mustahkam yaxlit qonunchilik bazasi yaratilgan. Jumladan, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, yer, yerosti va yerusti boyliklardan oqilona foydalanish haqida ta'kidlangan. Darhaqiqat, o'zimiz yashab turgan ona yerni asrab, tabiat in'om etgan ne'matlardan oqilona foydalanish, nafas olayotgan atmosfera havosini musaffo saqlash har birimizning burchimizdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Sattorov, Q.Allanov, B.Abdumo'minov "Global iqlim o'zgarish, uning oqibatlari va unga moslashish. Termiz. 2019.

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

2. Nig`matov A.N "O`zbekiston Respublikasining ekologik huquqi. Toshkent.2004
3. Rafiqov A.A. "Geoekologik muammolar". Toshkent. 1997.
4. Ergashev A. "Umumiy ekologiya" T.2003

